MARKAZIY OSIYODA NEOLIT DAVRI DAFN UDUMLARINING QIYOSIY TAHLILI (TUTKAUL, TUMEK-KICHIJIK VA ZARDOLISOY-001 QABRLARI MATERIALLARI ASOSIDA)

© 2026. Ergashev Odil[1], Xinying Zhou[2], Rashidov Niyoz[3], O‘ngalov Laziz[4]
[1]Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
0009-0000-8064-3919
[2]Umurtqali paleontologiya va paleoantropologiya instituti, Xitoy Fanlar akademiyasi
0000-0001-5570-4863
[3]Y. G‘ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti
0000-0002-6278-9647
[4]Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti NTM Samarqand kompusi
0009-0009-6737-6452

Kalit so‘zlar: Tutkaul, Tumek-Kichijik, Zardolisoy-001, Hisor neolit madaniyati, Kaltaminor madaniyati, dafn marosimi, g‘ujanak holat, qabr orientatsiyasi, oxra, inventar, pozitsion marosim modeli, ashyoviy marosim modeli.

Ushbu maqolada Markaziy Osiyodagi neolit davriga mansub uchta yodgorlik — Tutkaul (Hisor madaniyati), Tumek-Kichijik (Kaltaminor madaniyati) hamda Zardolisoy-001 (Nurota tog‘ tizmasi) qabrlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ko‘mish marosimlarining hududiy xususiyatlarini bir xil indikatorlar tizimi asosida aniqlashdan iborat.

Tahlil jarayonida qabr arxitekturasi, marhumning qabrga qo‘yilishidagi tana holati, marhumlarning boshi va tanasining orientatsiyasi, oxra va qabrda marhum bilan qo‘shib ko‘milgan buyumlarning mavjudligi kabi belgilar mezon sifatida qo‘llanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, Tumek-Kichijik qabrlari tor-cho‘zilgan chuqurlar, supin (chalqancha-cho‘zilgan) holat, sharqiy orientasiya va boy inventar (oxra, munchoq, chig‘anoq va boshqa bezaklar) bilan tavsiflanib, marosimning «ashyoviy ifodalangan» modelini namoyon etadi.

Tutkaul va Zardolisoy-001 dafnlarida esa marhumlarning qabrga g‘ujanak/yonbosh holatda qo‘yilishi, nisbatan sodda qabr konstruksiyasi va inventarning minimal yoki umuman yo‘qligi qayd etiladi. Bu holat dafn marosimining asosan, o‘xshash takrorlanuvchi belgisi tana kompozitsiyasi va yo‘nalishi orqali ifodalangan «pozitsion modeli» mavjudligini ko‘rsatadi.

Qiyosiy natijalar Markaziy Osiyo neolitida ko‘mish amaliyoti yagona sxema asosida shakllanmaganini, balki ekologik-madaniy hududlarga qarab farqlangan kamida ikki marosimiy yo‘nalish belgisi mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Zardolisoy-001 qabri ushbu tizimda sodda, qabr buyumlarisiz va g‘ujanak holatdagi ko‘mish modeli sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ НЕОЛИТИЧЕСКИХ ПОГРЕБАЛЬНЫХ ОБРЯДОВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (НА ОСНОВЕ МАТЕРИАЛОВ МОГИЛЬНИКОВ ТУТКАУЛ, ТУМЕК-КИЧИДЖИК И ЗАРДОЛИСАЙ-001)

© 2026. Эргашев Одил[1], Синьин Жоу[2], Рашидов Ниёз[3], Унгалов Лазиз[4]
[1]Самаркандский государственый университет им. Ш.Рашидова
[2]Институт палеонтологии позвоночных и палеоантропологии, Китайская академия наук
[3]Самаркандский институт археологии имени Я. Гулямова
[4]Университет экономики и педагогики (НТМ), Самаркандский кампус

Ключевые слова: Туткаул, Тумек-Кичиджик, Зардолисай-001, Гисарская неолитическая культура, Кельтеминарская культура, погребальный обряд, скорченное положение, ориентация могилы, охра, инвентарь, позиционная модель обряда, вещественная модель обряда, неолит Центральной Азии.

В статье проводится сравнительный анализ погребений трёх неолитических памятников Центральной Азии — Туткаул (в рамках гиссарской культуры), Тумек-Кичиджик (кельтеминарская культура) и Зардолисой-001 (Нурата). Цель исследования — выявление региональных особенностей погребальных обрядов на основе единой системы индикаторов.

В качестве критериев анализа использованы архитектура могил, положение тела, ориентация головы и корпуса, наличие охры и сопроводительного инвентаря. Погребения Тумек-Кичиджик характеризуются узкими продолговатыми ямами, супинным (вытянутым на спине) положением, восточной ориентацией и богатым инвентарём (охра, бусины, раковины и другие украшения), что отражает «вещественно выраженную» модель обряда.

Погребения Туткаул и Зардолисой-001 отличаются скорченным/боковым положением умерших, относительно простой конструкцией могил и минимальным либо отсутствующим инвентарём. Это свидетельствует о существовании «позиционной модели» обряда, где ритуальная семантика выражается через композиции тела и ориентации.

Сравнительный анализ показывает, что погребальная практика неолита Центральной Азии не имела единой схемы формирования и варьировалась в зависимости от эко-культурных зон, что позволяет выделить по меньшей мере два ритуальных направления. Погребение Зардолисой-001 занимает особое место как пример простого, без инвентарного скорченного захоронения.

Kirish. Markaziy Osiyo neolitida ko‘mish marosimlari jamiyatning xo‘jalik shakli, urf-odat me’yorlari va dunyoqarashini arxeologik jihatdan tiklashda eng muhim manbalardan biridir.

Dafn amaliyoti odatda tasodifiy bo‘lmaydi. qabr o‘rasining tuzilishi, tana skeletning holati (chalqancha, yonbosh, g‘ujanak), orientatsiyasi, marhumni ko‘mishda oxra ishlatish va ashyoviy buyumlar bilan birga ko‘mish (boncuk, chig‘anoq, sopol parchalari, mehnat va ov qurollari) kabi ko‘rsatkichlar majmuasi diniy marosimlar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi (Parker Pearson, 1999: 250).

Shu sababli qabr topilmalari nafaqat alohida shaxs haqida, balki uni dafn qilgan jamoaning marosimlari tartibi, qadriyatlari va ijtimoiy me’yorlari haqida ham muhim ma’lumotlar beradi.

Markaziy Osiyo hududida neolit davri yodgorliklari keng tarqalgan bo‘lsa-da, mazkur mintaqaning paleoantropologik topilmalar bazasi juda kambag‘al hisoblanadi. XX asrning ikkinchi yarmida olib borilgan jadal va keng ko‘lamli arxeologik tadqiqotlarga qaramay, inson suyak qoldiqlari faqat sanoqli yodgorliklardagina qayd etilgan.

Xususan, bunday noyob topilmalar Tumek-Kichijik qabristoni (Виноградов, Итина, Яблонский, 1986: 199) Kaylyu g‘ori yaqinidagi mudofaa ob’ektlari va dafnlari, shuningdek Joytun madaniyatiga mansub bir qator turar joylarda (Массон, 1971: 208) o‘rganilgan. Bundan tashqari, Soy-Sayyod, Tutkaul (Ранов, Коробкова, 1971: 133–147), Qoraungur hamda Dam-Dam-Chashma-1 (Окладников, 1953: 73–104) kabi yodgor-liklardan olingan antropologik ma’lumotlar mintaqa aholisining paleobiologik xusu-siyatlarini va neolit davri jamoalari, ularning dafn odatlarini tushunishda muhim ilmiy aha-miyatga ega.

Markaziy Osiyoda neolitizatsiya jarayonlari tabiiy muhit va xo‘jalik turiga qarab keskin farqlanadi: tog‘oldi va tog‘li hududlardagi Hisor madaniyati an’analari bilan delta-cho‘l zonadagi Kaltaminor doirasi bir xil turmush tarziga ega bo‘lmagani kabi, ularning dafn odatlari ham turlicha bo‘lgan. Masalan, Tutkaul yodgorligida neolit qatlamidan uchta qabr aniqlangan. Tutkaulning ilk qazishmalari va yodgorlikning umumiy tavsifi dastlab sovet davri tadqiqot ishlarida yoritilgan (Ранов, Коробкова, 1971: 133–147). Ushbu qabr materiallari ustida keyinchalik qayta antropologik tahlildan o‘tkazilib, marosim belgilari qayta tahlil qilingan (Шнайдер и др., 2023: 7-19). Tumek-Kichijik (Kaltaminor) neolit qabristoni qabrlari ham o‘tgan asrning ikkinchi yarmida tadqiq etilgan. Tadqiqot natijalari monografiya



1-rasm. Markaziy Osiyo neolit makonlari orasida Zardolisoy yodgorligining joylashuv o‘rni
Рис. 1. Расположение памятника Зардолисой среди неолитических стоянок Центральной Азии
Fig. 1. Location of the Zardolisoy site among Neolithic sites of Central Asia

ko‘rinishidagi ilmiy ishlarda nashr qilingan (Виноградов, Итина, Яблонский, 1986: 199).

Markaziy Osiyo neolit davri yodgorliklarida so‘nggi yillarda qabr materiallari deyarli qayd etilmagan edi. Bunday noyob antropologik materialli qabrlardan biri Shimoliy Nurota tog‘ tizmasida aniqlangan yangi Zardolisoy yodgorligida 2025-yilda qayd etildi (1-rasm) (Khanipour et. al., 2026: 53-62).

Tadqiqotchilar tomonidan yodgorlikda aniqlangan qabr Zardolisoy-001 qabri deb nomlangan. Zardolisoy-001 qabri mintaqadagi ko‘milish tipologiyasini aniqlashtirishda, Hisor va Kaltaminor madaniyatlariga oid dafn marosimlari bilan qiyoslab talqin qilishda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Masala faqat qabrning mavjudligida emas, balki uning qaysi ko‘rsatkichlar majmuasi orqali va qanday marosimlar an’analariga ko‘ra ko‘milganligidadir.

Metodlar. Ushbu maqolada Tutkaul, Tumek-Kichijik va Zardolisoy-001 qabrlarini bir xil ko‘rsatkichlar tizimi asosida taqqoslash usuli orqali hududiy tafovutlar aniqlandi. Bunda (1) qabr arxitekturasi, (2) tana holati, (3) orientatsiyasi, (4) oxra va inventarlar mavjudligi inobatga olindi. Natijada Markaziy Osiyo neolit davrida ko‘mish odatlarining «tabiiy-xo‘jalik zonalari bo‘yicha» farqlanishi hamda Zardolisoy-001 qabrining shu tizimdagi o‘rni aniqlandi. Qo‘yilgan maqsadlaridan kelib chiqib, manbalar va ma’lumotlar bazasi tahlil qilindi. Ushbu qiyosiy tadqiqot uch xil manba turiga tayandi: (1) asosiy arxeologik-hisobot va klassik nashrlar, (2) zamonaviy tadqiqotlar asosida qayta tahlillar, (3) birlamchi antropologik hisobotlarga.

Jumladan, Tutkaul yodgorligi topilmalari neolit qatlamidagi dafnlar, ularning stratigrafiyasi, marosim belgilarining kontekstual talqini hamda mintaqaviy analogiyalari S. Shnayder va b. lar tomonidan olib borilgan zamonaviy qayta tahlil asosida olindi (Шнайдер и др., 2023: 7–19). Tutkaulning dastlabki qazish-

malari va yodgorlikning madaniy-xronologik tavsifi esa sovet davridagi tadqiqotlarga oid milliy nashrlarga tayangan holda kiritildi (Ранов, Коробкова, 1971: 133–147).

Tumek-Kichijik yodgorligi qabr arxitekturasi, skeletning yotishi holati, orientatsiyasi, oxra va bezak buyumlari (boncuk/chig‘anoq va b.) hamda Kaltaminor madaniyati doirasiga mansublik haqidagi dalillar A.V. Vinogradov boshchiligidagi olimlarning tadqiqot ishlaridan olindi (Виноградов, 1981: 176; Виноградов, Итина, Яблонский, 1986: 7-75).

Zardolisoy yodgorligida Zardolisoy-001 topilmasining jismoniy antropologik o‘rganishga doir N. Rashidovning hisobotidagi skelet saqlanishi, jins-yosh taxmini, tafonomik kuzatuvlar va radiouglerod kalibrovkasi haqidagi ma’lumotlaridan va nashr etilgan ilmiy maqolalardagi qisqa sharxlardan bevosita foydalanildi (Khanipour et. al., 2026: 53-62).

Tahlil olib borilgan materiallarda quyidagi jihatlar inobatga olindi: neolit davriga mansub bo‘lishi, dafn etish belgilariga ega bo‘lishi: qabr tipi, tana holati, orientatsiyasi, ilmiy hisobot va nashrlarda qayd etilgan yoki zamonaviy ilmiy tahlillar asosida aniq bayon qilingan bo‘lishi kabi jihatlariga. Shuningdek har bir yodgorlik uchun xos indikatorlarga tahlil manbalari asosida e’tibor berildi.

Ushbu metodik yondashuvlar asosida to‘la xulosa chiqarishga to‘sqinlik qiluvchi omillar ham mavjud. Tutkaulda dafnlar soni kam (3 ta), Zardolisoyda esa hozircha aniqlangan qabr yagona. Shu sababli xulosalar hududiy tendensiyalar bilan emas, balki kuzatilgan marosim modellari darajasida ehtiyotkorlik bilan talqin qilinadi.

Materiallar. Tutkaul makoni Tojikiston hududida, Dushanbedan taxminan 70 km janubi-sharqda, Vaxsh daryosi bo‘yida, Darai-Osiyo soyining quyilish nuqtasida joylashgan va hozirda u Norak suv ombori ostida qolgan. Yodgorlik 1956-yilda A.P. Okladnikov tomonidan aniqlangan. 1963, 1965–1969-yillarda Tojikiston arxeologiya ekspeditsiyasi V.A. Ranov rahbarligida qutqaruv qazishmalarini olib borib, yodgorlik deyarli to‘liq o‘rganilgan (Ранов, Коробкова, 1971: 133–147).

Tutkaul yodgorligi qatlamlari o‘rganilganda uning quyi 2a, 3 qatlamlaridan 3 ta qabr aniqlanib, qabrlarda 4 ta dafn amalga oshirilgani aniqlangan. Tekshirishlar qabrlarning 2 tasi etuk yoshli kishi, 1 tasiga 2 ta bolalar dafn etilganligi aniqlangan (Ранов, Коробкова, 1971: 133-147; Kiyatkina, 1976: 6-12; Shnayder i dr., 2023: 7-15).

1-qabrdan bukilgan holatda, chap yonboshiga yotqizilgan to‘liq skelet aniqlangan; qo‘l panjalari chap yonoq ostiga qo‘yilgan. T.P. Kiyatkina ushbu individni ayol deb belgilagan, biroq bosh suyagidagi ayrim belgilar jinsni aniq tasdiqlamasligini ta’kidlaydi (Кияткина, 1976: 187).

2-qabrdan bosh suyagi gumbazi va skeletning yuqori qismlari topilgan. Tadqiqotchi uni etuk yoshdagi ayol sifatida baholagan; bosh suyagi dolixokran, peshona do‘mboqlari sust ifodalangan, ensa qismi bo‘rtib chiqqan (Кияткина, 1976: 187). Shu bilan birga, 1967 yilgi dala hisobotida suyaklarni olish vaqtida tirsak suyagi ostidan yoshi katta individga tegishli bo‘lishi mumkin bo‘lgan tish aniqlangani qayd etiladi (Ранов, 1968: 35). So‘nggi tahlillarda ushbu tish bu qabrga mansub bo‘lmagan boshqa erkak kishiga tegishli ekanligi aniqlangan (Posth et al., 2023: 117–126; Шнайдер и др., 2023: 7-19).

3-qabr ikki bolaga tegishli bo‘lib (taxminan 5–6 va 4 yosh), skeletlar to‘liq saqlanmagan va anatomik tartib qisman buzilgan. Dala tavsifiga ko‘ra, bosh suyaklari yonma-yon joylashgan, suyaklarning tegishliligini aniqlash qiyin, umumiy tana yo‘nalishi janubi-g‘arbga qaratilgan (Ранов, 1968: 35).

Ushbu qabr suyaklari ustida olib borilgan so‘nggi kuzatishlar bolalarning yoshi 3–5 yosh oralig‘ida (Куфтерин, 2017: 154) yana birining yoshi T.P. Kiyatkina tomonidan bosh suyagi bo‘yicha taxminan, 4 yoshda deb belgilangan (Кияткина, 1976: 187). So‘nggi tadqiqotlarda saqlanib qolgan skelet suyaklari aynan shu individga tegishli bo‘lishi ehtimoli aytilgan (Шнайдер и др., 2023: 7–19). Shuningdek

3-qabrning umurtqa namunasi bo‘yicha genetik tahlil olinib, bolada gepatit B virusi bo‘lganligi aniqlangan (Шнайдер и др.., 2023: 7–19). Ushbu virus individ mansub bo‘lgan filogenetik daraxtining o‘ziga xos tarmog‘iga tegishli bo‘lib, neolit davridagi boshqa g‘arbiy Yevrosiyo topilmalarida topilmagan.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Tutkaul yodgorligida dafn etishda skeletlar ko‘proq chap yonbosh holatda, bosh qismi janubi-sharq, tanasi esa shimoliy-g‘arb yo‘nalishida yotqizilgan. Buni bir tomonga yo‘naltirilishning takrorlanuvchi belgisi sifatida qayd etishimiz mumkin. Shu bilan birga, qabr inventarining yo‘qligi «ashyoga tayanmagan» marosimni bildiradi.

Radiouglerod sanalar (kalibrlangan doiralarda) ushbu dafnlarning neolit davriga mansubligini mustahkamlaydi (Шнайдер и др., 2023: 7–19). So‘nggi yillardagi genetik tadqiqotlar ushbu qabr odamlari o‘z xususiyatlariga ko‘ra qadimgi shimoliy Yevrosiyodan (ANE/ Ancient North Eurasian) kelib chiqish ildiziga ega bo‘lgan Sibir yuqori paleolit davri individlari (Malta 1, Afontova Gora 2 va Afontova Gora 3 kabi) genomlariga yaqin turishi ko‘rsatilmoqda (Шнайдер и др., 2023: 7–19).

Hisor neolit madaniyatiga tegishli qabrlar Soy-Sayyod yodgorligining 2-madaniy qatlamidan ham qayd etilgan. Dafn qilingan marhumning boshi shimoliy-sharqqa yo‘naltirilgan, oddiy o‘ra shaklidagi qabrga dafn etilgan. Dafn o‘rasi hajmlari aniqlangan, qabr invertarlari yo‘q deyilgan bo‘lsada, qabr suyaklari qismlari atrofida bir nechta o‘sha davrga tegishli tosh buyumlari uchratilgani qayd etiladi (Шнайдер и др., 2023: 7–19). Qabrdagi suyaklar yoshi katta erkak kishiga tegishli ekanligi T. Kiyatkina tomonidan qayd etilgan (Кияткина, 1998: 524-543).

Ushbu madaniyatga tegishli yana bir topilma Bo‘lyoni-Poyon yodgorligida A.P. Okladnikov tomonidan aniqlangan. Qabr kichik individga tegishli ekanligi qayd etilgan. Bu qabr haqida to‘liq ma’lumotlar saqlanmagan (Окладников, 1961: 5-17; Шнайдер и др., 2023: 7–19).

Kaltaminor madaniyati Markaziy Osiyoda dafn marosimlari va antropologik materiallarga nisbatan boyroq hisoblanadi (Виноградов, 1981: 176; Виноградов, Итина, Яблонский, 1986: 199) .

Kaltaminor madaniyati qabrlari tor cho‘zilgan o‘ralarga ko‘milgani, mayitlarning chalqancha-cho‘zilgan holatda qo‘yilgani, odatda sharq-shimoliy-sharq yo‘nalishida dafn qilinishi, oxra va boy bezaklar bilan dafn qilinishi holatlari bilan ajralib turadi (Виноградов, 1981: 176; Виноградов, Итина, Яблонский, 1986: 199; Шнайдер и др., 2023: 7-19).

Kaltaminor madaniyatiga tegishli eng boy qabrlar Tumek-Kichijik qabristonida (24 ta) qayd etilgan. Ushbu qabrlar ko‘pincha kaltaminorliklar an’anasiga mos tarzda tor, cho‘zilgan va nisbatan chuqur qabrlarga, ayrim holatlarda devor bo‘ylab oyoq qo‘-yish shaklantirilgan (ustup) chuqurchalarga ega. Bu jarayon tadqiqotchilar zamonaviy talqinida qabr qazish texnikasi va jasadni joylashtirish amaliyoti ma’lum darajada standartlashganligida deb bayon qilingan (Шнайдер и др., 2023: 7–19). Marhumlar odatda chalqancha va qo‘l-oyoqlari cho‘zilgan holatda yotqizilgan; boshlari esa sharq yoki shimoli-sharqqa qaratilgan (Виноградов, 1981: 7–19; Виноградов, Итина, Яблонский 1986: 199).

Tumek-Kichijik dafn marosimlarining eng muhim belgilaridan biri - qizil oxra sepish va marhum bilan ko‘milgan buyumlarning boyligi hisoblanadi. Bu buyumlar orasida sopol parchalari, ko‘p sonli Didacna chig‘anoqlari hamda suyakdan yasalgan boncuklar, chig‘anoq bezaklari va qush suyaklari asosidagi bezak elementlari qayd etiladi (Виноградов, Итина, Яблонский, 1986: 199; Шнайдер и др., 2023: 7–19). Yodgorlikning Kaltaminor doirasiga mansubligiga asoslanib, umumiy xronologiyasi A. Vinogradov tomonidan V ming yillik oxiri – IV ming yillik bilan sanalanadi.

Ushbu madaniyatga tegishli boshqa qabrlar ham aniqlangan. A.V. Vinogradov tomonidan Kaskajol va Tolstov yodgorliklarida, A.P. Okladnikov tomonidan Koylu g‘oridan ham shu madaniyatga tegishli qabrlar qayd etilgan

(Виноградов, Итина, Яблонский, 1986: 199; Окладников, 1953: 73-104).

Koylu go‘ridan topilgan antropologik topilmalar ustida so‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida ularning madaniy mansubligi, genetik, anatomik xususiyatlari va aniq xronoligiyasiga oid ko‘pgina savollarga javob topildi (Шнайдер и др., 2023: 7–19). Bu qabrlarning kaltaminor madaniyatiga xos dafn xarakterida ekanligi asoslandi.

Zardolisoy-001 antropologik topilmasi hali ustida qator tadqiqotlarni kutayotgan noyob topilma hisoblanadi. Topilma Samarqand davlat universiteti olimlari tomonidan 2023 yilda dala kuzatuvlari natijasida aniqlangan (Sayfullaev va b., 2023: 15-18). Olib borilgan qazuv shurfida 2024 yilda topilmaning bir qismi ochildi. Bu qabr ekanligiga ishonch hosil qilingach, skeletni zarar etkazmasdan olish maqsadida 2025 yilda qayta qazuv ishlari Xitoy paleontologiya va antropologiya instituti olimlari bilan birgalikda olib borilib, skelet tuprog‘i bilan kesma uslubida qazib olindi (Khanipour et. al., 2026: 53-62).

Zardolisoy yodgorligi Nurota tog‘ tizmasining shimoliy qismi janubiy etaklarida Minishkor mahallasi, Oqqo‘rg‘on qishlog‘ida joylashgan (1-rasm). Bu yodgorlikda qayd etilgan Zardolisoy-001 topilmasining asosiy belgilari oddiy chuqur (konstruksiyasiz) qabrga, g‘ujanak holatda, qo‘shimcha buyumlarsiz ko‘milganligidir.

Qabr 3-raqamli qazuv shurfining 2-qatlamida aniqlangan. U er sathidan taxminan 80-110 sm chuqurlikda qayd etilgan (Khanipour et. al., 2026: 53-62). Qabr marosimi konstruktiv jihatdan juda sodda: jasad oddiy chuqurga, hech qanday qabr qoplamasi yoki maxsus inshootsiz joylashtirilgan, marhum bilan ko‘milgan buyumlarsiz va qurilish belgilarisiz dafn etilgan. Skelet g‘ujanak holatda, chap yonboshda yotqizilgan, yuzi o‘ng tomonga burilgan, qo‘llar ko‘krak sohasida, oyoqlar qorin tomonga zich bukilgan (2-rasm). Skeletni mayda suyaklarning bir qismi yemirilgan, biroq yirik elementlar (jumladan, bosh chanoq, tishlar va uzun suyaklar) nisbatan yaxshi saqlangan, suyak morfologiyasi individ kattalar toifasiga mansubligini ko‘rsatadi.

Radiouglerod sanalash natijasi ushbu dafnni mil. avv. IV ming yillikning birinchi yarmi doirasiga joylashtiradi (Khanipour et. al., 2026: 53-62).

Qabrda garchi aniq marosim belgisi sifatida buyumlar uchramasada, marhumning bosh qismiga yaqin qismidan bitta kvarts xomashyosidan ishlangan qirg‘ich, 1 ta uchirindi va 1 ta nukleus uchraydi. Fikrimizcha, qabr yodgorlik ustiga keyingi davrda qazib qo‘yilgan degan faraz va buyumlarning aniq marosimiy belgilarning uchramasligi, keyingi tadqiqotlarda qazuv davom ettirilgach qabr o‘rni aslida yirik gulxan o‘rni bo‘lgani isbotlanishi bu buyumlarni qabr buyumlari emas degan xulosani berishimizga sabab bo‘ldi.

Zardolisoy-001 qabri Markaziy Osiyo neolitida «g‘ujanak holat + inventarsiz sodda ko‘milish» modeli ham mavjudligini ko‘rsatadi. Bu model Tutkauldagi «g‘ujanak/yonbosh» an’analari bilan formal jihatdan yaqin bo‘lsada, Tumek-Kichijikdagi «oxra + boy bezak + uzunasiga - cho‘zilgan» marosimidan aniq farqlanadi (2-rasm).

Munozaralar. Ilmiy tahlillar Markaziy Osiyo neolit davri yodgorliklari qabrlarida marhumlar tanasining qabrga joylashtirilish holati, bosh qismning yo‘naltirilish tomoni, qabr invertarlari, qabrlarning saqlanishiga ta’sirlar kabi jihatlarga e’tibor qaratildi.

Markaziy Osiyo qabrlarida asosiy ajralish belgisi tana holati bo‘yicha kuzatiladi. Tumek -Kichijik yodgorligidagi qabrlarda marhumlarning tana holati «chalqancha-cho‘zilgan» shaklda, Tutkaul hamda Zardolisoy yodgorliklarida esa marhumlarning qabrdagi tana holati «g‘ujanak/yonbosh» shaklida joylashtirilgan. Tumek-Kichijik qabrlarida marhumning chalqancha va qo‘l-oyoqlari cho‘zilgan tarzda yotqizilishi ko‘mish marosimining «me’yoriy (standart)» modeli mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu holat odatda tor-cho‘zilgan qabr chuquriga jasadni tartibli joylashtirish amaliyoti bilan birga keladi. Bunday joylashtirishda marhum tanasi «tekis holat»ga keltiriladi, ya’ni



2-rasm. Zardolisoy-001 qabrining dafn ko‘rinishi
Рис. 2. Погребальный вид захоронения Зардолисой-001
Fig. 2. Burial view of grave Zardolisoy-001

marosimning asosiy belgisi ko‘proq qabrning tuzilishi va birgalikda dafn qilingan buyumlar orqali ifodalanadi.

Tutkaul qabrlarida esa marhum ko‘proq g‘ujanak/yonbosh holatda tasvirlanadi. Bu Hisor madaniyatiga xos ko‘mishlar uchun xos bo‘lgan «pozitsion kod» bo‘lib, marosimning ramziy tomoni aynan tana kompozitsiyasi orqali kuchliroq berilgan bo‘lishi mumkin (Шнайдер и др., 2023: 7–19). Zardolisoy-001 da g‘ujanak holat qayd etilishi ham Tutkaul bilan formal o‘xshashlikni kuchaytiradi. Nurota tog‘laridagi Zardolisoy neolit qabri ham aynan g‘ujanak, chap yonboshda ko‘milganini ko‘rsatadi, bu holat Markaziy Osiyoda g‘ujanak ko‘milishlar «yakka hodisa emas», balki regional amaliyotlardan biri bo‘lishi mumkinligini anglatadi.

Shu bilan birga, buni darhol «madaniy bog‘liqlik» deb qat’iy aytish metodlogik jihatdan to‘g‘ri emas deb o‘ylaymiz. Chunki Zardolisoy yodgorligi bo‘yicha hozircha qabrlar ko‘p sonli emas ya’ni hali ularning soni yagonaligicha qolmoqda, qabr inventarlar masalasi va maxsus marosimlar masalasi ham bitta qabr to‘la asoslanib xulosa beriladigan jihatlar emas. Shuning uchun bu o‘xshashlikni hozircha formal, parallel sifatida baholasak bo‘ladi.

Orientatsiya masalasida Tutkaul muhokamasida mualliflar marhumlar boshining janubi-sharq / shimoli-sharq tomonga yo‘naltirilishini takrorlanuvchi element sifatida ajratadilar (Шнайдер и др., 2023: 7–19). Zardolisoy-001 qabrida ham boshning janubi-sharqqa qaratilib daf etilgan (Khanipour et. al., 2026: 53-62). Zardolisoy-001 qabrida ham skeletning chap yonbosh xolatda yotqizilgan va tana kompozitsiyasi aniqlikka ega. Bu turdagi dafnlarda orientatsiya va skeletni joylashtirish holati birgalikda dafn marosimining «tuzilma belgisi» sifatida qaralishi mumkin.

Biroq orientatsiyani «marosimiy belgi» sifatida qat’iylashtirishdan ehtiyotkor bo‘lish zarur deb o‘ylaymiz. Sababi orientatsiya ba’zan mahalliy landshaftning tabiati (vodiy yo‘nalishi, yonbag‘ir), qabr chuqurining geometriyasi va qazishning amaliy qulayligi bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Tumek-Kichijikda boshning sharq/shimoliy-sharq tomonga yo‘naltirilishi aniq qayd etilgan (Виноградов, Итина, Яблонский, 1986: 199; Шнайдер и др., 2023: 7–19). Bu Kaltaminor madaniyati doirasida «sharqiy komponent» marosim me’yoriga aylangan bo‘lishi ehtimolini oshiradi. Demak, Zardolisoy antropologik topilmasining orientatsiyasi haqida fikrlarimiz seriyali qabrlar topilgach yanada mustahkam asosga ega bo‘ladi.

Uchta dafn komplekslari o‘rtasidagi yana bir muhim farq, dafn marosimlarining ashyoviy buyumlar bilan birgalikda yoki ashyoviy buyumlarsiz amalga oshirilishidir. Tumek-Kichijik qabrlarida marhumlarning qizil ox-ra bilan qoplanishi va ko‘p sonli ashyoviy buyumlar (boncuk, chig‘anoq/suyak bezaklar, keramika parchalari) bilan birgalikda ko‘milishi, qabrlarning «materiallashgan» qabr degan beligisini yanada kuchaytiradi.

Zamonaviy tadqiqotlarga e’tibor berilgan jihatlardan biri munchoqlarning tos/pelvis atrofida jamlanishi ularning kiyim/bezak tizimiga tegishli bo‘lishi ehtimolini kuchaytirib, marosimda «tana bezagi» muhim o‘rin egallaganini anglatishi aytilmoqda (Шнайдер и др., 2023: 7–19).

Tutkaul dafn marosimlarida qabr inventarning yo‘qligi yoki juda kamligi kuzatiladi (Кияткина, 1976: 187). Zamonaviy tahlillar-da bu belgi marosim «ashyoga tayanmagan», ya’ni ko‘proq tana holati va tana yo‘nalishi orqali ifodalangan bo‘lishi mumkin degan xulosa beradilar (Шнайдер и др., 2023: 7–19).

Nurota tog‘ tizmasidagi Zardolisoy-001 qabrida ham «qabr buyumlari yo‘qligi» va maxsus qurilmalar qayd etilmagan, sodda, inventarsiz va gujanak holatdagi dafn modeli deb kiritsak bo‘ladi. Shu sababli metodik jihatdan Tumek-Kichijik qabrlarini «oxra va boy inventar orqali kuchli ashyoviy marosim» modeli, Tutkaul–Zardolisoyni esa «pozitsiya va yo‘nalish kodi kuchli, ashyoviy qatlam yo‘q» modeli sifatida ajratish asosli hisoblanadi.

Xulosa. Tutkaul (Hisor neolit madaniyati), Tumek-Kichijik (Kaltaminor madaniyati) va Zardolisoy (Nurota tog‘ tizmasi) qabrlari qiyosida eng kuchli farqlantiruvchi ko‘rsatkichlar sifatida tana holati hamda marosimning ashyoviy ifodalanish darajasi (oxra va buyumlar bilan ko‘mish) ajralib chiqdi.

Tumek-Kichijik yodgorligida qabrlarning tor-cho‘zilgan va nisbatan chuqur bo‘lishi, marhumning chalqancha va cho‘zilgan holatda yotqizilishi, boshning sharq/shimoli-sharq tomonga yo‘naltirilishi, shuningdek qizil oxra va bezak buyumlar (munchoqlar, chig‘anoq, sopol parchalari)ning ko‘pligi ko‘milish marosimi muayyan darajada barqaror standartga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

Tutkaul yodgorliklarida marhumlarning g‘ujanak shaklda yonbosh holatda va boshining janubi-sharqqa qaratib, tanani shimoli-sharq yo‘nalishda bo‘lishi, qabr inventari yo‘qligi dafn marosimning «ashyoviy» emas, balki tana holati va yo‘nalishi orqali ifodalangan (pozitsion) modelini ko‘rsatadi.

Zardolisoy yodgorligida aniqlangan qabr oddiy yoriq shaklidagi qazuv, marhumning g‘ujanak shakldaligi, marhumning boshi janubi-sharqqa qaratilishi Hisor madaniyatlariga xos pozitsion model bilan formal yaqinlikni beradi.

Nurota tog‘laridagi Zardolisoy makonining oddiy invertarsiz qabri Markaziy Osiyo neolitida «sodda interment + g‘ujanak holat» variant sifatida mintaqaviy miqyosda uchrashi mumkinligini ko‘rsatadi. Biroq bu holatni bevosita madaniy bog‘liqlik sifatida ko‘rsatish uchun Zardolisoydagi yagona qabr haqidagi ilmiy dalillarning o‘zigina hozircha yetarli emas. Zardolisoy neolit yodgorligini qurollaridagi texnik-tipologik tadqiqotlar, hududiy joylashuvning Hisor madaniyati bilan o‘xshashligi, asosan, ikki hudud madaniyati ovchi jamoalariga xosligi belgilari ham bor. Bu masalalar keyingi tadqiqotlarda yanada aniqlashtiriladi.

Umuman olganda, ushbu qiyosiy tahlillar natijalari Markaziy Osiyo neolitida ko‘mish odatlari yagona sxema emasligini, aksincha, ekologik-madaniy zonalar bo‘yicha farqlanadigan kamida ikki asosiy yo‘nalish mavjudligini ko‘rsatadi:

1-Tumek-Kichijikda va boshqa Kaltaminor madaniyatiga xos kuchli «ashyoviy marosim» (oxra va bezaklar) bilan marhumning tana holati chalqancha-cho‘zilgan tarzda yotqizish shaklida dafn qilish.

2-Tutkaul va Zardolisoy yodgorliklarida qabr inventarlarisiz, lekin tana holati va orientatsiyaga tayangan «pozitsion marosim» ko‘rinishda takrorlanishlar mavjud. Ushbu tahlillar mutloq bo‘lmasada, hozirgi mavjud materillar bilan asoslangan oxirgi tahliliy xulosa deyishimiz mumkun.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *Виноградов А.В., Итина М.А., Яблонский Л.Т. Древнейшее население низовий Амударьи: археолого-палеоантропологическое исследование. Наука. М. 1986. 199 с.*
2. *Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Т. XIII. Наука. М. 1981. 176 с.*
3. *Кияткина Т.П. Материалы к палеоантропологии Таджикистана. Дониш. Душанбе. 1976. 187 с.*
4. *Кияткина Т.П. Палеоантропология древнейшей и древней Средней Азии // История таджикского народа. Т. 1. Дониш. Душанбе. 1998. С. 524–543.*
5. *Кияткина Т.П. Палеоантропология западных районов Центральной Азии эпохи бронзы. Дониш. Душанбе. 1987. 124 с.*
6. *Куфтерин В.В. Атлас абрисов костей конечностей детей и подростков для возрастной экспресс-диагностики. Старый Сад. М. 2017. 154 с.*
7. *Khanipour M., Sayfullaev B.K., Ergashev O.T., Ungalov L.A., Djurakulova D.M., Alisher Qizi S., Zhou H., Shomurodova Sh.J., Ghafforov Sh.S., Radjabov A.Y. New Evidence from the Neolithic Period in the Nurata Highlands, Uzbekistan // Journal of Sistan and Baluchistan Studies. 2026. Vol. 6, No. 1. DOI: 10.22034/jsbs.2025.553325.1112. Tegeran. Pp. 53–62.*
8. *Массон В.М. Поселение Джейтун: проблемы становления производящей экономики // Материалы и*

исследования по археологии СССР. № 180. Наука. Л. 1971. 208 с.
9. *Najafi M., Niknami K.A., Gholamzade S., Khanipour M., Sołtysiak A. Human Remains from Kan-Gohar Cave, Iran, 2010–2015 // Bioarchaeology of the Near East. Vol. 12. 2018. Tegeran. Pp. 95–102.*
10. *Naseri R., Najafi M., Mahjoubi Z., Tavakoli Mehr D., Kavosh H.A., Miri S.M. Human Remains from Lahsavareh, Iran, 2020 // Bioarchaeology of the Near East. Vol. 14. 2020. Tegeran. Pp. 159–166.*
11. *Окладников А.П. Исследование мустьерской стоянки и погребения неандертальца в гроте Тешик-Таш, Южный Узбекистан (Средняя Азия) // Тешик-Таш: Палеолитический человек: сборник статей / отв. ред. М.А. Гремяцкий. Издательство Московского государственного университета. М. 1949. С. 7–85.*
12. *Окладников А.П. Древнейшие археологические памятники Красноводского полуострова // Труды ЮТАКЭ. Т. 2. Ашхабад. 1953. С. 73–104.*
13. *Окладников А.П. Исследование памятников каменного века на юге Таджикистана в 1958 г. // Археологические работы в Таджикистане. Вып. 6. Дониш. Душанбе. 1961. С. 5–17.*
14. *Окладников А.П. Пещера Джебел — памятник древней культуры прикаспийских племен // Труды ЮТАКЭ. Т. 7. Ашхабад. 1956. С. 11–220.*
15. *Parker Pearson M. The Archaeology of Death and Burial. Stroud: Sutton Publishing. New-York. 1999. 250 p.*
16. *Posth C. et al. Palaeogenomics of Upper Palaeolithic to Neolithic European Hunter-Gatherers // Nature. Vol. 615. London. 2023. Pp. 117–126.*
17. *Ранов В.А., Коробкова Г.Ф. Туткаул — многослойное поселение гиссарской культуры в Южном Таджикистане // Советская археология. № 2. М. 1971. С. 133–147.*
18. *Ранов В.А. Отчет о работе Нурекского археологического отряда за 1967 год // Архив ИИАЭ им. А. Дониша АН РТ. Душанбе. 1968. 35 с.*
19. *Rashidov N. Zardolisoy-001 skeletining jismoniy-antropologik o‘rganilishi bo‘yicha hisobot. Samarqand arxeologiya instituti. Samarqand. 2025. 20 b.*
20. *Sayfullaev B.Q., Ergashev O., Ungalov L., Rajabov A., Imomov A. Nurota tog‘ tizmasining shimoliy qismidan topilgan tosh davriga oid yangi topilmalar // Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tarixi, moddiy va ma’naviy madaniyati (qadimgi davrdan hozirgi kungacha): Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Samarqand. 2023. B. 15–18.*
21. *Шнайдер С.В., Березина Н.Ю., Филимонова Т.Г., Алишер кызы С., Бужилова А.П. Результаты нового изучения антропологических материалов Центральной Азии: по материалам стоянок Туткаул и Кайлю // Российская археология. № 4. М. 2023. С. 7–19.*

REFERENCES:

1. *Vinogradov A.V., Itina M.A., Yablonskiy L.T. 1986. Drevneyshee naselenie nizoviy Amudari: arkheologo-paleoantropologicheskoe issledovanie (The Earliest Population of the Lower Amu Darya: An Archaeological and Paleoanthropological Study) / Alekseev, V. P., Itina, M. A. (eds.). Moscow: “Nauka” Publ. (in Russian).*
2. *Vinogradov A.V. 1981. Drevnie okhotniki i rybolovy Sredneaziatskogo mezhdurechya (Ancient Hunters and Fishermen of the Central Asian Interfluve) / Itina, M. A. (ed.). Moscow: “Nauka” Publ. (in Russian).*
3. *Kiyatkina T.P. 1976. Materialy k paleoantropologii Tadzhikistana (Materials on the Paleoanthropology of Tajikistan). Dushanbe: “Donish” Publ. (in Russian).*
4. *Kiyatkina T.P. 1998. In: Negmatov, N. N. (ed.). Istoriya tadzhikskogo naroda (History of the Tajik People). Vol. 1. Dushanbe: “Donish” Publ., 524–543 (in Russian).*
5. *Kiyatkina T.P. 1987. Paleoantropologiya zapadnykh rayonov Tsentralnoy Azii epokhi bronzy (Paleoanthropology of the Western Regions of Central Asia in the Bronze Age) / Alekseev, V. P. (ed.). Dushanbe: “Donish” Publ. (in Russian).*
6. *Kufterin V.V. 2017. Atlas abrisov kostey konechnostey detey i podrostkov dlya vozrastnoy ekspress-diagnostiki (Atlas of Outlines of Limb Bones of Children and Adolescents for Rapid Age Diagnosis). Moscow: “Staryy Sad” Publ. (in Russian).*
7. *Khanipour M., Sayfullayev B.K., Ergashev O.T., Ungalov L.A., Djurakulova D.M., Alisher Kyzy S., Zhou H., Shomurodova Sh.J., Ghafforov Sh.S., Radjabov A.Y. 2026. In Journal of Sistan and Baluchistan Studies 6 (1), 53–62. DOI: 10.22034/jsbs.2025.553325.1112 (in English).*
8. *Masson V.M. 1971. Poselenie Dzheytun: problemy stanovleniya proizvodyashchey ekonomiki (The Jeitun Settlement: Problems of the Formation of a Productive Economy). Leningrad: “Nauka” Publ. Materialy i issledovaniya po arkheologii SSSR 180 (in Russian).*
9. *Najafi M., Niknami K.A., Gholamzade S., Khanipour M., Sołtysiak A. 2018. In Bioarchaeology of the Near East*

12, 95–102 (in English).
10. *Naseri R., Najafi M., Mahjoubi Z., Tavakoli Mehr D., Kavosh H. A., Miri S. M. 2020. In Bioarchaeology of the Near East 14, 159–166 (in English).*
11. *Okladnikov A. P. 1949. In: Gremyatskiy M.A. (ed.). Teshik-Tash: Paleoliticheskiy chelovek (Teshik-Tash: Paleolithic Man). Moscow: Moscow State University Publ., 7–85 (in Russian).*
12. *Okladnikov A.P. 1953. In Trudy Yuzhno-Turkmenistanskoy arkheologicheskoy kompleksnoy ekspeditsii (Proceedings of the South Turkmenistan Archaeological Complex Expedition) 2, 73–104 (in Russian).*
13. *Okladnikov A.P. 1961. In Arkheologicheskie raboty v Tadzhikistane (Archaeological Works in Tajikistan) 6, 5–17 (in Russian).*
14. *Okladnikov A.P. 1956. In Trudy Yuzhno-Turkmenistanskoy arkheologicheskoy kompleksnoy ekspeditsii (Proceedings of the South Turkmenistan Archaeological Complex Expedition) 7, 11–220 (in Russian).*
15. *Parker Pearson M. 1999. The Archaeology of Death and Burial. Stroud: Sutton Publishing (in English).*
16. *Posth C. et al. 2023. In Nature 615, 117–126. DOI: 10.1038/s41586-023-05726-0 (in English).*
17. *Ranov V.A., Korobkova G.F. 1971. In Sovetskaya arkheologiya (Soviet Archaeology) 2, 133–147 (in Russian).*
18. *Ranov V. A. 1968. Otchet o rabote Nurekskogo arkheologicheskogo otryada za 1967 god (Report on the Work of the Nurek Archaeological Detachment for 1967). Dushanbe: Archive of the A. Donish Institute of History, Archaeology and Ethnography, Academy of Sciences of the Republic of Tajikistan (in Russian).*
19. *Rashidov N. 2025. Zardolisoy-001 skeletining jismoniy-antropologik o‘rganilishi bo‘yicha hisobot (Report on the Physical-Anthropological Study of the Zardolisoy-001 Skeleton). Samarkand: Samarkand Institute of Archaeology. Unpublished report (in Uzbek).*
20. *Sayfullayev B.Q., Ergashev O., Ungalov L., Rajabov A., Imomov A. 2023. In: Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tarixi, moddiy va ma’naviy madaniyati (qadimgi davrdan hozirgi kungacha) (Socio-Economic and Political History and the Material and Spiritual Culture of the Peoples of Central Asia: From Antiquity to the Present). Samarkand, 15–18 (in Uzbek).*
21. *Shnaider S.V., Berezina N.Y., Filimonova T.G., Alisher Kyzy S., Buzhilova A.P. 2023. In Rossiyskaya arkheologiya (Russian Archaeology) 4, 7–19. DOI: 10.31857/S0869606323040165 (in Russian).*

A COMPARATIVE ANALYSIS OF NEOLITHIC BURIAL RITES IN CENTRAL ASIA (BASED ON MATERIALS FROM THE TUTKAUL, TUMEK-KICHIDZHIK, AND ZARDOLISOY-001 SITES)

© 2026. Ergashev Odil[1], Xinying Zhou[2], Rashidov Niyoz[3], Ungalov Laziz[4]

[1]*Samarkand state university named after Sh. Rashidov*

[2]*Institute of vertebrate paleontology and paleoanthropology, Chinese Academy of Sciences*

[3]*Samarkand Institute of archaeology named after Y. Gulyamov*

[4]*University of economics and pedagogy (NTM), Samarkand campus*

Key words: Tutkaul, Tumek-Kichijik, Zardolisoy-001, Hissar neolithic culture, Kaltaminor culture, burial practice, flexed position, supine burial, grave orientation, ochre, grave goods, positional ritual model, material ritual model, Central Asian neolithic.

This article presents a comparative analysis of burials from three neolithic sites in Central Asia — Tutkaul (within the Hissar cultural sphere), Tumek-Kichijik (Kaltaminor culture), and Zardolisoy-001 (Nuratau mountain range). The main objective is to identify regional characteristics of burial rituals based on a unified system of indicators.

The analysis considers grave architecture, body position, head and torso orientation, the presence of ochre, and associated grave goods as key criteria. Tumek-Kichijik burials are characterized by narrow elongated pits, a supine (extended on the back) position, eastern orientation, and rich grave goods (ochre, beads, shells, and other ornaments), representing a “materially expressed” ritual model.

In contrast, Tutkaul and Zardolisoy-001 burials exhibit flexed or side positions, relatively simple grave constructions, and minimal or absent grave goods. This indicates a “positional ritual model,” in which ritual meaning is primarily conveyed through corpse positioning and orientation.

Comparative results suggest that burial practices in the Central Asian neolithic were not based on a single unified scheme but varied according to ecological and cultural zones, reflecting at least two distinct ritual traditions. The Zardolisoy-001 burial is particularly significant as an example of a simple, without grave goods flexed burial model.